

## ZAMONAVIY AXBOROT MUXITIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH TIZIMINI YARATISH SAMARADORLIGI

**Yusupov Nizomiddin**

Samarqand temir yo‘l texnikumi maxsus

fan yetakchi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda o‘quv jarayonida talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash, baholash, natijalarni tahlil va bashorat qilishni o‘z ichiga oluvchi axborot tizimini yaratish muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Maqolada zamonaviy axborot muxitida talabalar bilimini nazorat qilish tizimini yaratish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot muxiti, talabalar bilimini nazorat qilish-ning asosiy maqsadi, vazifalari, imkoniyatlari, usullari, samaradorligi.

Ta‘lim tizimida talabalar bilimini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular o‘zlashtirgan bilim darajasini aniqlash, ularni yaxshilash usullarini ko‘rsatish va shu asosda talabalarga mukammal bilim olish imkoniyatini yaratishdan iborat. Bu esa, birinchi navbatda, talabalar tomonidan olgan bilimlarini o‘zlashtirish sifati va darajasi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan, nazoratning asosiy maqsadlaridan biri o‘zaro va o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha yondashuvlarni o‘rganish hamda ularni shakllanishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari talabalarda bilim olishga qiziqish, intilish va ehtiyoj sezish kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Zamonaviy axborot muxitida talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimining eng asosiy vazifalaridan biri - nazorat funksiyasi bo‘lib, u talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holatini, sifatini va darajasini

namoyon qilish bilan birga, talaba erishgan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish va tizimlashtirilganini nazorat qiladi.

Zamonaviy axborot muxitida talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida talabalarning bilim va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarga zamonaviy texnologiyalarini qo'llash, ularning qo'yilgan didaktik talablarga mosligi haqiqiylikini nazorat qilish mumkin.

Zamonaviy axborot muxitida talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimidan foydalanishning asosiy samaradorligi talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, bilim olishga ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini mustaqil ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish-dan iborat bo'lib, quyidagi vazifalarni bajarishga mo'ljallanadi:

- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarning holati, sifati va darajasini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni o'quv yili davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;
- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimni haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarni muntazam ravishda ma'lum qilish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha talabalarning mustaqil ishlash malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish;
- zamonaviy axborot muxitida o'qituvchilarning mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimi uchun kerakli materiallarni tayyorlash ma'suliyatini oshirish.

Zamonaviy axborot muxitining talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash, natijalarni tahlil va bashorat qilish ta'limda joriy etishda mavjud usullarni qo'llash orqali aniqlash imkoniyati tug'iladi. Talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida talabalar erishgan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo'li - test bo'lib, bu usul kompyuterning testdan foydalanuvchi bilan o'tkazadigan muloqotiga asoslangan bo'lib, uning samaradorligi quyidagilardan iborat:

- nazorat o‘tkazish uchun kam vaqt sarflanadi;
- talabalar nazariy va amaliy bilimlar darajasini ob’ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli talabalar bilan nazorat o‘tkazish mumkin;
- nazorat natijalari talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida tezkorlik bilan qayd qilinadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida kompyuterli bilimlarni tekshirishni tashkil etish samaradorligi quyidagilardan iborat:

- zamonaviy axborot muxitida o‘qituvchi mehnatini engillashtiradi, o‘qituvchi ko‘proq vaqtini talaba bilan individual shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ladi;
- bilimlarni tekshirish va baholash jarayonining xolislik darajasini oshiradi;
- har bir talabaga nazorat ishlarining individual to‘plamini shakllantirish, topshiriqlarni ekranga chiqarish, talabaning javobini tahlil qilish, baho qo‘yish, o‘qitish dasturi yordamida nazorat natijasi va talabaning ishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlash imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy axborot muxitining talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holati, sifati va darajasini muntazam ravishda nazorat etib borish ikki uslubiy va texnik usullarda amalga oshiriladi.

Talabalar bilimni nazorat qilishning uslubiy usuli pedagogik masalalarni echish bilan bog‘liq bo‘lib, nazorat qilish jarayonini tashkillashtirishning quyidagi didaktik vazifalarini o‘z ichiga oladi:

- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holati, sifati va darajasini tekshirish uchun topshiriqlarni tanlash, ya’ni nazorat qilish maqsadini aniqlash;
- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holati, sifati va darajasini nazorat qilishni rejalashtirish hamda muddatini aniqlash;

– talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holati, sifati va darajasini tekshirish uchun nazorat ishlari to‘plamini shakllantirishga qo‘yilgan talablarni aniqlash va uni shu talablar asosida amalga oshirish.

Talabalar bilimini nazorat qilishning texnik usuli intellektual dasturiy tizimidan foydalanishning yangi bir muhitini yaratadi, bunda o‘qitishning zamonaviy metodlari osongina integratsiya qilinadi. Bu esa talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida turli model va algoritmlar yaratish texnologiyalarini qo‘llash hamda axborot muhitida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usul va metodlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy imitatsion kompyuterli modellar axborot muhitida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash dinamikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki nisbatan ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlarni baholovchi va tahlil etuvchi jarayonlarni amalga oshiradi. Bu esa zamonaviy axborot muxiti-ning talabalar bilimini nazorat qilish axborot tizimida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning holati, sifati va darajasini nazorat qilish, baholash, bashorat qilish hamda boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun o‘quv muassasasining ichki imkoniyatlarini aniqlash va olingan ijobiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish samaradorligini oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ваграменко Е.А. Информационные технологии и модернизация образования // Педагогическая информатика. 2000. - №2. — С.3-10.
2. Ванькова В.С. Творческие задания в обучении информатике студентов педагогического вуза / В.С. Ванькова, Ю.М. Мартынюк // Педагогическая информатика. №1. - 2005. - С.40-46.
3. Секой Л. Продуктивные процессы в обучении и мышлении. Кн.: Психология мышления. М., 2003.
4. Трайнев В.А. Информационные коммуникационные педагогические технологии. М.: Дашков и К, 2005. - 280 с.